

ЕКОТУРИЗМ ТУШУНЧАСИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ ТАРИХИ ВА ТА'РИФИ

Jabborova Mohichehra Husniddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yoʻnalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola ekoturizm tushunchasining kelib chiqishi, rivojlanishi va shakllanishi tarixi haqida ma'lumot beradi. Ekoturizmning mohiyati, uning ahamiyati va jahon miqyosida tutgan oʻrni tahlil qilinadi. Mazkur maqolada ekoturizmning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarini oʻrganilib, uning turli mintaqalarda qanday rivojlanganligi va turizm sohasidagi yutuqlar koʻrsatib berilgan. Ekoturizmning tabiiy resurslarni muhofaza qilish va mahalliy aholini qoʻllab-quvvatlashdagi roli hamda uning global va mahalliy darajada qanday amalga oshirilishi toʻgʻrisida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: ekoturizm, ekologik turizm geografiyasi, ekoturizmning turlari, ekoturizm yili.

ORIGIN AND DEFINITION OF THE CONCEPT OF ECOTOURISM

Jabborova Mohichehra Husniddin qizi

Shahrisabz State Pedagogical Institute

3rd-year student, Department of Geography and Economic Knowledge

Abstract: This article provides information about the history of the origin, development, and formation of the concept of ecotourism. The essence of ecotourism, its significance, and its place on a global scale are analyzed. The article examines the social, economic, and ecological aspects of ecotourism, exploring how it has developed in various regions and highlighting achievements in the tourism sector. The role of ecotourism in protecting natural resources and supporting local communities, as well as its implementation at both global and local levels, is discussed in detail.

Keywords: ecotourism, geography of ecological tourism, types of ecotourism, year of ecotourism.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЯ ЭКОТУРИЗМА

Аннотация: В данной статье предоставляется информация об истории возникновения, развития и формирования понятия экотуризма. Анализируется сущность экотуризма, его значение и место в мировом масштабе. В статье рассматриваются социальные, экономические и экологические аспекты экотуризма, исследуется его развитие в различных регионах и подчеркиваются достижения в сфере туризма. Подробно обсуждается роль экотуризма в охране природных ресурсов и поддержке местных сообществ, а также его реализация на глобальном и местном уровнях.

Ключевые слова: экотуризм, география экологического туризма, виды экотуризма, год экотуризма.

Ekoturizm (ekoturizm yashil turizm) – antropogen ta'siriga nisbatan ta'sirlanmagan tabiiy hududlarga nisbatan tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir turi hisoblanadi.

G'arbda "ekoturizm" atamasi XX asr 80-yillarining birinchi yarmida **Ektor Cebellas-Laskuran** (ispancha Hector cebellas-Laskuran) tomonidan konferensiyalardan birida rasmiy ravishda ishlatilgan u dam olish va ekologiya o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini aks ettiradi hamda katta shuhrat qozonadi.

Ekologik turizm yoki ekoturizm tabiatni muhofaza qilishni targ'ib qiluvchi atrof muhitga nisbatan yumshoq ta'sir ko'rsatadigan mahalliy aholining faol ijtimoy-iqtisodiy ishtirokini ta'minlaydigan va tabiatni o'rganish hamda zavqlanish uchun buzilgan tabiiy hududlarga nisbatan (atrof muhitga) mas'uliyat bilan sayohat qilishni nazarda tutadi. U shu faoliyatdan foyda olishni nazarda tutadi. Ekoturizm bu ekoturizmlarning yaxlitligini buzmaydigan tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, mahalliy aholi uchun foydali bo'ladigan iqtisodiy yaratadigan hududlarning tabiiy va madaniy-etnografik xususiyatlari to'g'risida tasavvurga ega joylarni sayohat qilishni o'z ichiga olgan turizm.

Ekologik turizm-ekologik ta'lim-tarbiya va ma'rifatni oshirishga qaratilgan dasturlarni o'z ichiga olgan hamda ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiatga yo'naltirilgan turizmdir.

Ekologik turizm mahalliy madaniyat va ekotizimlarning yaxlitligini buzmaydigan tabiiy muhitni yaxshiroq tushunish maqsadida tabiiy hududlarga maqsadli tarzda sayohatni tashkil qilish orqali tabiiy resurslarni himoya qilishni mahalliy aholi bilan birgalikda amalga oshirish foydali bo'ladi.

Ekologik turizm atrof muhitga nisbatan bo'lgan ta'sirni ya'ni iste'molni va xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan axloqiy me'yorlarga muvofiq tashkil etilgan hamda atrof muhitga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan ekologik jihatdan barqaror tabiiy turizmning bir shakli bo'lib, u atrof-muhitga ya'ni iste'molga va xarajatlarni nazorat qilish nuqtai nazaridan o'lchovlarining afzalliklari odatda turizmning bunday shakli himoyalangan hududlarda rivojlanib boradi. Natijada ushbu hududlarni saqlab qolishga yordam beradi.

Ekoturizm tabiatni muhofaza qilish va rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin. U kamida sayyohlik faoliyati bilan bog'liq holda biologik xilma-xillik va mahalliy aholi o'rtasidagi ijobiy senergetik munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu esa tegishli tashkilot va faoliyatni boshqarish tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Ekoturizm bu- turizm

- 1.Nisbatan buzulmagan tabiiy hududlarda mavjud bo'ladi.
- 2.Tabiiy muhitni yo'q qilishga uning sifati yomonlashishiga olib kelmaydi.
- 3.Foydalaniladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va boshqarishga bevosita hissa qo'shadi.
- 4.Yetarli va vakolatli boshqaruvga bo'ysinadi.

Ekoturizm uchta asosiy mezonni o'z ichiga oladi. Asosiy sayyohlarni jalb qiluvchi joylar tabiiy (masalan, flora, fauna, geologik xususiyatlar) bo'lib quyidagi tarkibi madaniy muhitning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Resurslarni o'rganish va tushunishga qaratilgan bo'lib, sayyohlar va boshqa tashrif buyuradigan hudud, jismoniy va madaniy muhitga yumshoq ta'sir ko'rsatadi. Ekoturizm tushunchasi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtda ekoturizm zonalariga tashrif buyuradigan sayyohlar soni dunyoda yildan-yilga oshib bormoqda. Sayyohlar hashamatli binolar va antiqa shaharlar o'rnida tabiiy muhitni, tabiatni ko'rishga intilishmoqda. Sayyohlar ekoturizm zonolari qulay bo'lgan Laos, Keniya, Tanzaniya, Ekvador, Kosta-Rika, Nepal, Avstraliya, Yangi Zellandiya va Janubiy Afrika Respublikasidagi tabiiy muhitga (landshaft) bo'lganligi jalb qilmoqda.

Yevropa va AQSHning rivojlanayotgan mamalakatlariga ekoturistlar dunyo bo'yicha eng ko'p sayohat qilishadi. Ekoturizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ekspertlarning fikricha dunyoda ekoturizmning jadal o'sish sur'atlari so'nggi 20-30 yil ichida yuqori darajada rivojlandi.

2020-yilda boshlangan pandemiyadan oldin ekoturizm turizm sanoati uchun yiliga bir milliard dollargacha daromad keltirdi. Bir kunda taxminan dunyodagi barcha sayyohlarning uchdan bir qismi ekoturistlar hisoblanadi.

BMTning xalqaro ekoturizm yilini e'lon qilishi ekoturizmni rejasiz, tabiatning qonuniyatlarini hisobga olmasdan ommaviy rivojlantirishdagi qayd qilingan holatlar insoniyatni xalqaro miqyoslarda tashvish va noroziliklariga olib keldi deya bayonot bilan chiqdi.

Natijada Butun jahon turizm tashkiloti (BTT) va "yashil dunyo" ekologik tashkilotining samarali mehnati tufayli XXI asrda turizmning barqaror rivojlanish Konsepsiyasi ishlab chiqildi.

BMT 2002-yilni "**Xalqaro ekoturizm**" yili deb e'lon qildi. Hozirga kelib ekoturizm xalqaro hamjamiyatda sayyoramiz tabiatini saqlab qolish va uni muhofaza qilishga bag'ishlangan tadqiqotlari xalqaro miqyosda kuchayib bordi. Ushbu yo'nalishda birgina 1999-yilda 400 dan ortiq ilmiy maqolalar xalqaro miqyosda tan olingan nashriyotlarda chop etildi. 2001-yil Rossiyada ekoturizm assotsatsiyasi tashkil etildi.

Ekoturizmning regional miqyosda turizmni dasturiy asos sifatida rivojlangan davri 1990-2000 yillarni o'z ichiga oladi. XX asr 90-yillarining boshlarida "**ekoturizm**" xalqaro mintaqaviy va milliy miqyosda rasmiy maqomga ega bo'ldi. Ayni shu yillar Yevropada xalqaro ekoturtizm ittifoqi ish boshladi.

O'tgan asrning 80-yillarida ekoturizmni rivojlantirishni birinchilardan bo'lib, boshlagan davlatlar AQSH, Kanada va Yevropa davlatlari bo'ldi. Bu davlatlar hali ekoturizmning ilmiy nazariyasi, tamoyillari, amaliyoti va turlari to'liq yaratilmaganligidan ekoturizmni o'z davlatlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha nomladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Hamidov O.H., Norchayev A.N. Ekoturizm. Darslik. T.: 2011.
2. Asqar Nig'matov, Nigora SHomurotova. Ekoturizm asoslari. O'quv qo'llanma. T.: 2007.
3. Shodimetov A. Turizm asoslari. Darslik. – Toshkent. 2014.
4. Hayitboyev Rahmatilla. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. T.: 2018.